



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



KITOB VA KUTUBXONA UYG'UNLIGI.

Saydumarova Husnora Farhod qizi.

*Toshkent viloyati Parkent tumani axborot –kutubxona markazi Fondlarni to'ldirish,
saqlash va ularga ishlov berish xizmati rahbari*

Men kutubxonada ishlayman. Bilim, ma'naviyat, marifat o'chog'ida. Ba'zi insonlarning savollari juda qiziq. "Kutubxonaga kitob o'qish uchun kelishadimi".

Bu antiqa savoldan keyin shunday javob berish mumkinki hamma o'zidan kelib chiqib savol beradi. Kitob o'qilmasa kutubxona bo'lmas edi. Kutubxonalar bor va kitobxonlar ham bor. Shu o'rinda bir qiziq ma'lumot: har yili dunyoda 755.755 ta yangi kitoblar nashr etilar ekan. 2017 yilning o'rtalaridan boshlab hisoblaganda 134 mln dan ortiq kitoblar nashr etilgan. Bu yaqin 9 yilgi ma'lumot. Undan oldingi va hozirgacha mavjud kitoblarni taxmin qilib ko'ravering.

Endi dunyo bo'yicha kitob mutolaasiga eng ko'p vaqt ajratadigan davlatlarga bir e'tibor berayliga:

Hindiston-10.7

Tailand-9.4

Xitoy-8

Filippin-7.6

Chexiya-7.4 soat kitob o'qishga vaqt ajratadigan davlatlar qayd etilgan ekan.



Kitob o'qigan qalblar har doim boshqalardan ajralib turadi. Bilim darajasi ham albatta yuqori bo'ladi. Aqlli harakatlar, ma'noli so'zlar, chuqur tafakkur va kreativ fikrlash bularning bari kitobga oshno qalblarda mujassamdir. Lekin hozirda kitob o'qish noo'rin yoki foydasiz





mashg'ulot deb o'ylaydiganlar ham bor albatta. Atrofimiz gazeta, teatr, kino, musiqa va internetning turli xillari ommalashib ketgan, axborot-informatika qabul qilish tezligi oshib-toshib ketgan bir davrda kitobning o'zni biroz chetga chiqib qolganini tan olmaslikning iloji yo'q. Aslida bularning bari teskarisiga bo'lganda - kitob mutolaasi birinchi o'ringa chiqib, qolganlari keyingi darajaga tushganda nimalar bo'lar edi, bir o'ylab ko'ringga.

Ayniqsa yoshlarimiz kitobdan olgan bilimdan ko'ra internet tarmoqlaridan bir zumda olishni afzal ko'radi. Xo'sh kitobni afzalliklarini yoshlarga qo'yingki xammaga isbotlangan foydalari bormi. Bor albatta. Aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra quyidagilar kitobningsiz bilgan va bilmagan foydalari haqida bo'ladi:

1. Mutolaa qilish asab hujayralarini tinchlantiradi. Ba'zida kuchli charchoq yoki stressda insonlar sayr qilishni, musiqa tinglashni yoki yolg'iz qolishni tanlashadi. Bu vaziyatlarda esa eng to'g'ri yechim kitob o'qish ekan. Unda miya faoliyatidagi asab hujayralari tinch va bir maromda ishlar ekan. Olti daqiqa kitob o'qish esa asabiylashishga barham berar ekan.

2. Mutolaa uyqusizlikdan qutulishga yordam beradi. Uyqusizlikdan aziyat chekkanda kitob mutolaasi yaxshi samara berar ekan. Telefon va televizorlar miyani uyg'onishga buyruq bersa, kitob esa aksincha miyaga dam berish haqida signal yuborishi aniqlangan ekan.

3. Mutolaa miya faoliyatini yaxshilaydi. Emori universitetini olimlari kitob o'qigan insonning aqliy salohiyati bir necha kun davomida yuqori holatda bo'lishini isbotlashibdi. Hattoki tadqiqotda asab tolalari sonini oshirishini ham ta'kidlashadi. Bu juda ajoyib. Sababi inson har kuni har xil yomon vaziyatlar sababli ko'plab asab tolalaridan ayrilar ekan.

4. Mutolaa tushkunlikka qarshi kurashishga yordam berar ekan. Shotlandiyalik olimlarning tadqiqotlariga qaraganda esa kitobni tushunib o'qish tushkunlik, kayfiyatsizlikka qarshi juda ham samarali mashg'ulot ekanligi aniqlanibdi. Bunday kasallik bilan chalingan bemorlar kitob o'qishdan keyingi holatda tushunlik darajasi sezilarli pasayganligini guvohi bo'lishgan.

5. Mutolaa xotira va fikrlash qobiliyatini yaxshilaydi. Xotirani mustahkamlash uchun ko'plab mashqlar hattoki dori preparatlari ham tavsiya qilinadi. Lekin bulardan eng afzali va zararsiz usuli mutolaa qilish ekan. Har safar mutolaa qilganda miya faol ishlaydi. U olinayotgan ma'lumotlarni saqlash uchun yangi tolalarni yaratadi. Olimlarning fikricha, muntazam ravishda kitob o'qiydigan insonlarning fikrlash qobiliyati boshqalarga nisbatan sekin kamayar ekan.

6. Mutolaa so'z boyligini oshiradi. Kitob o'qiyotgan paytda bizga notanish so'zlar ham uchrab qoladi. Ularning ma'nosini esa umumiy mazmunidan tushunib olish ham mumkin. Shunday qilib bizda so'zlashuvimizda, nutqimizda so'zlarning keng lug'ati paydo bo'ladi. Ularni o'z o'rnida ishlatish qobiliyati ham. Katta davralarda, mitinglar va omma oldida tutilmay, hayajonlanmay so'z yuritadiganlarning yagona quroli bu - kitob.

7. Mutolaa ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi. Obafemi Avolau universiteti pedagoglari boshlang'ich sinf o'quvchilarining mashg'ulotlariga mavzuli komikslarni kiritishganida suratlar va so'zlar aralashmasi bolalarning ijodkorlik qobiliyatlarini oshirishini aniqlashdi. Kitoblar kattalarga ham ana shunday ta'sir ko'rsatadi.




8. Birgalikda kitob o`qish ota-onalar va bolalarning o`zaro munosabatlarini yaxshilaydi. Psixologlar birgalikda kitob o`qish jarayonida ota-onalar va bolalarning o`rtasida o`ziga xos iliqlikdagi munosabat o`rnatiladi deb hisoblashadi. Ayniqsa farzandlarning ota-onalariga bo`lgan hurmati yanada oshadi. Birgalikda televizor ko`rilganda esa bunday bo`lmaydi.

Bularning baridan ko`rinib turibdiki, kitob mutolaasi insonga ko`p narsa beradi. Barcha davlatlarda ham kitobni sevib o`qilishi buning yaqqol dalilidir. Inson moddiy yuksalishi mumkin lekin ma`naviy yuksalish hayotni asl mohiyatini anglashimizga imkon beradi.

Endi yana bir masala bor kitobni an'anaviy usulda o`qish bilan onlayn ya'ni kitobni telefon, kompyuter, noutbuklarda mutolaa qilishni anchagina farqi bor. Afzali esa albatta an'anaviy mutolaa usulidir. Kitob aslida imsonga juda qulay qilib ishlab chiqilganki hali ham uni shakliga o`zgartirish kiritilmagan. Masalan uchburchak kitobni ko`rganmisiz. Yo`q albatda. Qadimdan kitoblar shu shaklga yetib kelguncha bir necha bosqichlardan o`tgan. O`sha paytda yozuv ham yo`q edi, lekin odamlar chizishni bilishar edi. Chizmalarida hayotiy voqealarni aks ettirganlar. Birinchi kitoblar nam loyga yozilib ularni o`choqda quritib biroz yengillashtirib yog`och qutida saqlangan. Qadimgi Misr, Rim va Gretsiyada papirusdan kitoblar yasalgan. Ammo vaqt o`tishi bilan papirus namlikdan parchalana boshlab, holati yomonlasha boshlagan. Keyinroq odamlar yozish uchun yangi material-hayvonlar terisidan tayyorlangan pergamentni ixtiro qildi. Ammo kitob yasashning bu usuli juda qimmat bo`lgani uchun kambag`allar undan foydalana olmasdi. Ular esa qayin po`stlog`iga yozardilar. X-asrga borib esa qog`oz paydo bo`ldi.

Aytishlaricha birinchi qog`oz varoq Xitoy davlatida ishlab chiqarilgan, ular daraxtdan foydalanishgan. Daraxt oppoq varaqqa aylanishi uchun ko`p mehnat talab qilinadi.





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kitoblarni hammasi bir-biridan qiziq va bir-biridan ta'sirli aslida. Lekin ularni ichida eng qiziqarlisi va juda ko'p sevib o'qiladiganlari ham bor. Quyida sizni dunyoda eng ko'p o'qiladigan kitoblar ro'yxati bilan tanishtiraman:

- Garri Potter-muallif: Joanna Rouling
- Uzuklar hukmdori-muallif: Jon Tolkien
- Kichkina shaxzoda-muallif: Antuan de Sent Ekzyuperi
- Da Vinchi siri-muallif: Den Braun
- Alkimyogar-muallif: Paulo Koelo
- Yashil yo'lak –muallif: Stiven King
- Shamollarda qolgan hislarim-muallif: Margaret Mitchell
- Usta va Margarita-muallif: Mihail Bulgakov
- Uch og'ayni-muallif: Erix Mariya Remark
- Anna Franking kundaligi-muallif: Anna Frank

Ushbu kitoblar juda ko'p sotilgan va o'qilgan. Yana bir qiziq ma'lumot.

Argentinadagi "Eterna Cadencia" nashriyoti "El libro que no puede esperar" deb nomlangan yangi kitob nashr etish texnologiyasini yaratdi. Bu antiqa texnologiya sizni kitobni o'z vaqtida o'qib chiqishga majbur qiladi.

"El libro que no puede esperar" degani "sizni kutib turmaydigan kitob" ma'nosini beradi. Bu juda noyob va antiqa kitob muxrlangan paketda sotiladi. Va uni ochib o'qishingiz bilan sahifalardagi harflar o'cha boshlaydi. Chunki "El libro que no puede esperar" kitoblaridagi harflar havo va yorug'lik ta'sirida yo'q bo'ladigan siyoh bilan bosilgan. Bundan tashqari, harflarning yo'qolib qolishiga to'liq jarayoni to'rt oy davom etadi. Ushbu muddat davomida siz ushbu kitobni o'qib tugatishingiz kerak bo'ladi. Kechiksangiz kitob yo'qolib qoladi.

"El libro que no puede esperar" texnologiyasi shuningdek ispan tilida yozgan Janubiy Amerikalik unitilib borayotgan yozuvchilarning asarlarini ommalashtirish uchun yaratilgan. Uning "yo'q bo'lib ketadigan" tabiati bir paytlar mashhur bo'lgan ammo deyarli unutilgan asarlar uchun metofaradir. Nashriyotchilar ushbu madaniy merosni o'z xalqiga qaytarish uchun ana shunday qiziqarli o'qish usulini o'ylab topdilar.

Kitoblar haqidagi bunday qiziqarli ma'lumotlar juda ko'p. Kitoblarni bir joyda jamlagan, nurlar yog'du kabi sochilib turgan, ilm-ma'rifatning bulog'i esa bu kutubxonadir. Kitoblar bilan to'la bu maskan insonni hamisha o'ziga chorlab turadi. Kitob va kitob mutolaasi haqidagi qiziqarli va hayratlanarli ma'lumotlardan so'ng kutubxonalar to'g'risida ham so'z yuritmasak bo'lmaydi menimcha.


Mana bu kutubxonalarga bir qarang. Ular antiqa va hashamatli dizayni, ma'naviyatga boyligi bilan dunyoda eng mashhurlari hisoblanadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Trinitı kolleji kutubxonasi.



Mazkur kutubxona Irlandiyaning Dublin shaharida joylashgan bo`lib, 1592-yil Qirolicha Elizavetta tomonidan ta`sis etilgan. Hozirda kutubxonada 7 millionga yaqin bosma kitob mavjud.

Lafayet kollejining Kerbi kutubxonasi



U 1930-yilda Pensilvaniya shtatida tashkil etilgan va 1990-yillar oxirlarida qayta ta`mirlangan. Kutubxonada 30 ming jild kitob saqlanadi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



Kongress kutubxonasi.



Vashingtondagi ushbu kutubxona 1800 yili AQSH Kongressi tomonidan Tomas Jefferson(AQSH Prezidenti) ga bag'ishlab qurilgan.Bu dunyodagi eng katta kutubxona bo`lib,unda 450 da ortiq tilar bo`yicha 90 mlnga yaqin bosma kitob saqlanadi.

Minskdaagi Belorussiya milliy kutubxonasi.



1922yil -Rus hukumati tomonidan barpo etilgan bo`lib o`sha davrda kutubxonada 60 mingta kitob bo`lgan.Hozirgi vaqtga kelib esa 9.8 mln bosma kitob saqlanadi.



Avliyo Gol kutubxonasi



Mazkur kutubxona Shvetsariyaning Sent Gallen shah rida joylashgan bo`lib, dastlab bu kutubxonada 612-yili rohib Gallus tomonidan ibodatxona sifatida qurilgan. Keyinchalik esa 780-yil Valdo tomonidan Avliyo Gol kutubxonasiga aylantirilgan. Kutubxona o`z ichiga 160 ming kitobni qamrab olgan.

Shunday qilib kitob va kutubxona uyg`unligi ajoyib bir mo`jizaki ular hayotimizning ajralmas qismi, moziyni tanitgan, qalblarda muhabbatni uyg`otgan, burch va sadoqatni mustahkamlagan, ba`zan ko`zlarni yoshlatib, ba`zan chuqur tafakkur qilishga majbur etgan, hayollar va hayotimiz mahsulidir. Kitoblarda kimningdir dardi, kimnidir sevgisi yana kimlarnidir orzu va armonlari yillar davomida yashab keladi. Biz esa ana shu avloddan avlodlarga o`tib kelayotgan an`ana- kitoblarni qadrlash, ular bilan do`stlashish, albatta asrab avaylash, farzandlarga ham bularni bot-bot eslatish har birimizning burchimizdir. Hayotimizning har bir daqiqasi, har bir oni biz uchun ulkan ne`mat, qaytarilib bo`lmas lahzalardir. Olimlarning kuzatishlariga ko`ra o`lim ostonasida turgan insonlarning ko`p qismi vaqt orqaga qaytsayu, boshqacha yashagan bo`lar edim der ekan. Hali vaqtingiz bor. Unumli foydalanish yoki befoyda o`tkazib yuborish ham o`z qo`lingizda. Bilimlar esa hayotimizni yanada go`zallashtiradi. Ko`pgina xatolar ilmsizlik oqibatida yuzaga keladi. Bilim olishdan aslo to`xtamagan inson maqsadsiz bo`lmaydi. Faqatgina orzularga berilib o`tirgan insonni orzulari armon bo`lib qolaveradi. Orzu qildingmi, harakat qilish uni maqsadga aylantirish va albatta natijaga erishish kerak. Men so`zim boshida kutubxonada ishlayman degan edim. Bu yerda umrim davomida bilmagan bilimlarga ega bo`ldim, hattoki turli xil insonlarni ko`rdim. Ular orasida har doim e`tiborimni tortadiganlari - atrofida qanday voqealar bo`layotganiga qaramay kitob mutolaasiga kirishib ketganlardir. Ularning o`z dunyosi bor va bu dunyoda ular baxtni o`z qo`llari bilan quryapdilar. Qaysidirlari esa erishgan ham...

Insonni yuksaltiradigan narsa boylik ham, mansab ham emas- bu ilmdir. Kitob bilan ulg`aygan qalb hech qachon zulmatda qolmaydi, chunki uning qo`lida doimo nur- bilim chirog`i bo`ladi. Bugun bir varaq kitob o`qigan inson – kechagi inson emasdir!